

**KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING
MUSIQIY IQTIDORINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI**

Pazilov Mirbek Arzievich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

mirp1984@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ
В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ НА ОСНОВЕ КОГНИТИВНОГО ПОДХОДА**

Пазиллов Мирбек Арзиевич – *доктор философии по педагогическим наукам*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**THE CONTENT OF DEVELOPING STUDENTS' MUSICAL ABILITY IN THE EDUCATIONAL
PROCESS BASED ON A COGNITIVE APPROACH**

Pazilov Mirbek Arzievich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: kognitiv yondashuv, kompetensiya, musiqa san'ati, musiqa tarbiyasi, erta yosh, ta'lim-tarbiya, Montessori, musiqiy ta'lim, o'qituvchi, qiziquvchanlik.

Rezyume. Mazkur maqolada kognitiv yondashuv asosida ta'lim jarayonida o'quvchilarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish mazmuni, hususiyatlari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Ключевые слова: когнитивный подход, компетенция, музыкальное искусство, музыкальное воспитание, ранний возраст, образование, Монтессори, музыкальное образование, учитель, любознательность.

Резюме. В данной статье рассматриваются содержание, особенности и значение развития музыкальных способностей учащихся в образовательном процессе на основе когнитивного подхода.

Key words: cognitive approach, competence, musical art, musical education, early age, education, Montessori, musical education, teacher, curiosity.

Summary. This article discusses the content, features, and significance of developing students' musical talent in the educational process based on a cognitive approach.

Kirish. Yurtimizda olib borilayotgan ta'lim islohotlarining bugungi kun bosqichida tarbiyaga ilmiy yondashish muhim masaladir. Tarbiyalash deganda har tomonlama barkamol, yetuk, odob-axloq fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, ma'naviy va jismoniy sog'lom insonni yetishtirish nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (23-sentyabr 2020-yil)ning yangi tahririda belgilangan vazifa va qo'yilgan talablar o'quvchilarning iqtidorini, qobiliyatini qo'llab-quvatlash, ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi va "ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan" [1]. Shuning uchun ham ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish asosiy maqsad etib belgilandi. Demak, ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda kognitiv yondashishning zarurligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

Inson o'z hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari "ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli kompetensiyalar ham shakllantiriladi" [2]. O'quvchilar bilan alohida pedagogik-psixologik dastur bo'yicha ishlash, musiqa darslarida cholg'u yoki ashula aytishdan zerikmaslik, dars vaqtida o'qituvchining har hil mavzuda suhbat olib borishi va o'zaro fikr almashgan holda dars o'tishi mazkur kompetensiyalarning shakllanishi va musiqiy iqtidorining rivojlanishiga asos bo'ladi.

San'at va hayotni estetik jihatdan to'g'ri idrok etishning o'zi o'quvchilarni ma'naviy yuksaltiradigan vosita. Binobarin, har qanday shakl muayyan mazmunning in'ikosi bo'lib, san'atning istalgan turi hayotdagi ijtimoiy ma'naviy normalarni o'zida aks ettiradi. Insonning san'atga bo'lgan estetik munosabati, hissiyoti, tabiiyat, mehnatdagi xatti-harakatlari, voqea-hodisalarni baholay olishi undagi yuksak iqtidor namunasidir. Ushbu jarayonlarda ob'ekt sifatida e'tirof etilayotgan musiqaning xarakteri va uning ob'ektivligini baholash o'quvchining bilimliligi va tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rivojlangan davlatlarda musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning tuzumiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham musiqa tarbiyasi mustaqil davlatlarda e'tiqod uchun, xorijiy mamlakatlarda esa burjua demokratiyasi uchun xizmat qiladi. "Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlari hamda shu xalqning milliy musiqa madaniyati va madaniy an'analariga asoslanadi... boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir qiladi» [3]. O'qituvchi o'zining sharoiti, maktab imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasini inobatga olib, dasturga o'zgartirish kiritishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida san'at orqali o'quvchilarga hayotni o'rgatish, unga shaxsiy munosabatini bildirish, ijodiy qobiliyatiga qarab bilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Masalan, AQShda musiqa faniga bog'liq maxsus dastur faqatgina estetika sifatida o'tiladi. Barcha san'at turlari: tasviriy san'at, musiqa, mehnat fanlari mazmun jihatidan bir-biri bilan bog'liq holda olib boriladi. Yaponiya davlatida ana shunday dasturga amal qilinmaydi, ammo musiqa tarbiyasining o'ziga xos tizimi yuzaga kelgan. Maktabgacha ta'limdan to'liq ta'limgacha estetik tarbiya

olib boriladi. Bunda voqea-hodisalarga estetik munosabatda bo'lish, ularni sezib idrok etish va inson ongi, ma'naviy kompetensiyalari bilan belgilangan ijtimoiy baholashni ham ko'rishimiz mumkin.

“Insonga maqsadli estetik ta'sir ko'rsatishning eng muhim omili – bu san'at, ayniqsa, hayotning estetik qadriyatlari aniq berilgan xalq ijodiyoti” [4]. San'at o'zida hayotni aks ettirar ekan, uning faqat go'zal tomonlarini emas, balki san'atning predmeti, uning xilma-xilligi, hayotdagi barcha ziddiyatlar, quvonch, g'am-tashvishlarni ham o'zida gavdalantradi. “O'qitishda – deydi, rus olimi I.Yu.D'yachenko, – musiqa san'atining roli katta, bu yerda o'quv jarayoni bola psixikasining hissiy tarkibiy qismiga asoslanadi... Tuyg'ular bilan muloqotga kirishish orqali u nafaqat bolaning hissiy holatlari sohasini kengaytirish va boyitishga, balki o'z tajribalarini ro'yobga chiqarishga va shu bilan ma'lum darajada nevrotizatsiya jarayonini tekislashga yordam beradi” [5].

Vengriyalik o'qituvchi Tibor Sharay “musiqa tinglash boshqa fanlarning kognitiv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga hissa qo'shadi, ortiqcha yuklanish hissin kamaytiradi” [5] – deb musiqa tarbiyasi maktabda olib boriladigan hamkorlikdagi aqliy mehnat bolalarni birdamlik, vaqtdan unumli foydalanish, faoliyat turlarining o'tish jarayonlarini tezlashishiga olib kelishiga urg'u beradi.

“Musiqani tinglash, uni idrok etish – musiqa yozish va uni ijro etishdek musiqa san'atidagi asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Musiqani hech kim tinglamasa, u o'z ma'nosini yo'qotadi va yashashdan to'xtaydi” [6] – deydi tadqiqotchi M.Pazilov. Albatta musiqani tinglash va uni idrok etish o'quvchilar ham bolalikdan tarbiyalanadi va takomillashtirilib boriladi. Musiqani barcha eshitgani bilan uni hamma ham tinglab idrok eta olmaydi. Uni idrok etish darajasi tinglovchining umumiy madaniyati va musiqiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Musiqiy asarning to'liq va chuqur idrok etilishi – bastakor va ijrochi mahoratidan dalolat beradi. Ana shu tarzda, tinglash jarayoni tinglovchining tarbiyasi, individual qobiliyati va tayyorgarligi bilan chambarchas bog'liq deb xulosa qilinadi [7].

O'quvchilardagi tushunish qobiliyati ta'limdagi muvaffaqiyat bilan uzluksiz bog'liq bo'lsa ham, o'qish jarayonida bolalarda tushunish yetishmovchiligi aksariyat hollarda e'tiborsiz qoldiriladi. O'qish asosidagi omillarni tushunish muhim ahamiyatga ega, chunki, o'qish va tushunish qobiliyatlarining rivojlanishi bolalardagi iqtidorni erta aniqlash imkonini yaxshilaydi. Bundan tashqari, maqsadli tarzda amalga oshirilgan ta'lim jarayonidagi kognitiv yondashuvlar kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday hayotiy muammolarning oldini olishi yoki kamaytirishi mumkin. Erta yoshdan boshlab va vaqt o'tishi bilan har xil turdagi o'qish bolalarda kognitiv ijodkorlik profilini tavsiflashning ilk muhim qadami hisoblanadi.

Bugungi kunda musiqiy iqtidor hususida musiqa sohasi vakillari va psixologlar orasida turli xil tushunchalar keng tarqalgan. Ulardan biri musiqiy iqtidorni “birinchi navbatda ijodiy qobiliyatdir» [8], – deb tushuntiradi. Mazkur tushunchalarni tahlil qilar ekanmiz, unchalik katta tafovvt sezilmaydi. Chunki, ularning birida musiqiy qobiliyatning shakli gavdalansa, ikkinchisida esa tarkibi aks ettiriladi.

Italiyalik psixolog, falsafa doktori Mariya Montessori o'z tadqiqotlarida bolani har tomonlama rivojlantirish,

ob'ektiv dunyoni aqliy faoliyat bilan bog'lash orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish, o'zlikni anglash uchun, ayniqsa maktabgacha ta'limda sharoit yaratish, bolaning bilish tajribasini o'zlashtirish kabi qator pedagogik yondashuvlarning maqsadli yo'nalishlari va amaliy usulining muhim tamoyillarini kashf yetgan. Yana uning amaliy tadqiqoti maktabgacha ta'lim va maktab ta'limida o'tilishi zarur bo'lgan musiqa darslari orqali bolaning rivojlanish davrlaridagi sezgirlik xususiyatlarining chegaralarini aniqlashdan iborat bo'lgan.

Natijalar. Belaruslik olim V.P.Reva o'zining “Системы музыкального воспитания” nomli kitobida (2017) M.Montessori tomonidan amalga oshirilgan tajribalarni keltiradi. Uning ko'rsatishicha birinchi tajribaning dastlabki bosqichlarida o'tkaziladigan musiqa darslari musiqa tinglash bilan cheklanadi. Montessori “Jimlikni tinglash” va diqqatni jamlash bo'yicha mashqlarni foydali deb hisoblaydi. Mashg'ulotlar atrofda tovushlarni bilish, ularni tanib olish, musiqani eshitishni faollashtirish bilan boshlanadi. Shu maqsadda nota nomlari (do, re, mi, fa, sol, lya, si, do) ketma-ketligida joylashtirilgan asosiy shkala ohanglari va yarim tonlariga qarab sozlangan qo'ng'iroqlar ishlatilgan [9], deb keltiradi. Bu yerda o'qituvchi qo'ng'iroqchalarni maxsus bolg'achasi bilan urib, ulardan tovush chiqaradi, bolalar esa tovush chiqqan qo'ng'iroqchani topishi kerak bo'ladi, bola tovushni topgandan keyin uni olib pastki qismida joylashtirib qo'yadi. Dastlab bir tonli nota tovushi, keyin yarim tonli nota tovushi aniqlanadi. O'quvchilar shu tariqa o'zlari topgan nota tovushlarini ovozda, ya'ni ijro etib chiqarishga harakat qiladi.

Ikkinchi tajribada M. Montessori polga ellips shaklida chiziqlar chizib, o'quvchilarni musiqaning ritmik sadosi ostida yurgizib ko'rish orqali tanani muvofiqlashtirish, muvozanatni ushlash va chiroyli yurish holatini rivojlantirishni ham maqsad qiladi. Bunda musiqaning tempi, ritmi, ohangi, dinamikasi, zarbalari asta-sekin murakkablashib borishi o'quvchilar harakatlarining tabiatida aks etishi kerak bo'ladi. Bu haqda Montessori “Musiqiyo'naltiruvchi ip sifatida bolani ma'lum bir sur'atda, ritmda boshqaradi. Ikkinchi yoki uchinchi tinglashda uch yoshli bolalar ham bajarilgan ish ritmiga tushadilar... agar asar hissiyot bilan ijro etilsa, bolalar ritmni mukammal his qilishadi. Bundan tashqari, ular nafaqat oyoqlari bilan, balki butun borlig'i bilan his qilishadi” [9], – deb ta'kidlab o'tadi.

Muhokama. Biz keltirgan M.Montessorining 2 tajribasi bu mashg'ulot jarayonida jismoniy va aqliy harakatlar orqali musiqiy savodxonlikni shakllantirib, o'quvchidagi musiqiy iqtidorni takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu kabi bilim strategiyasini ta'lim maskanlariga ilk qadam qo'ygan davrdan boshlab ulkan qiziquvchanlik bilan qarshi olgan o'quvchi fanlarning uzluksiz bir-biri bilan bog'lik ekanligini tez anglaydi. Montessorining ushbu 2 tajribasini keltirishimizning yana bir muhim jihati shundaki aslida musiqiy iqtidori shakllanib borayotgan bola uchun bu kabi mashg'ulotlar zarur, chunki musiqiy mashg'ulotlar davomida o'ziga zarur bo'lgan bilimlarni ham olish imkoniyati mavjud.

“Musiqiyo'qituvchisi ta'lim muhitini yaratishi, bolalarning individuallik huquqini hurmat qilishi va faqat kerak bo'lganda ularning faoliyatiga aralashishi kerak (M.Montessori)” [9]. Bu esa nafaqat o'qituvchining

kognitiv yondashuvini amalga oshirishda, balki o'quvchilarning "bilimdonlik darajasini oshirib borish, shaxsiy salohiyatini namoyon etishga tayyorlik, yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zining kasbiy kompetentligini doimiy oshirib borish qobiliyati" [10] kognitiv kompetentligini o'rtirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kognitiv yondashuv orqali ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning musiqiy iqtidorini rivojlantirishda o'qituvchi nimani o'rganishi kerak va dars jarayonida o'quvchilarga o'rgatishi lozim bo'lgan mavzusini ham ma'naviy, ham ma'rifiy jihatdan teran anglashi, tahlil qilishi zarur. Ya'ni o'qituvchi ushbu mavzuda nimani o'rganaman, nimani o'rgataman degan, kognitiv tamoyil asosida o'z pedagogik mahoratini takomillashtirib borishi lozim.

Xulosa. Albatta bugungi kunda bolaning musiqiy iqtidorini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida har xil qarashlar mavjud. Ammo o'quvchilarda musiqiy iqtidorni rivojlantirish orqali milliy musiqiy merosimizni qalbga singdirish, ularning ma'naviy-axloqiy takomillashtirish tamoyillariga e'tibor berish orqali musiqiy iqtidorning o'ziga xos tamoyillari shakllantiriladi.

So'zimiz so'ngida ixtisoslashgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning musiqiy iqtidorini rivojlantirish tamoyillarini tanlashda faqat musiqiy savodxonlikni emas, balki musiqaning fanlar bilan bog'liq jihatlarini o'rgatib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, musiqa o'zida barcha fanlarni jamlagan, masalan musiqa fanidan matematika, fizika, astronomiya, falsafa, jismoniy tarbiya, tabiyatshunoslik v.h.k. fanlarni topishimiz mumkin. Bu esa o'quvchilarda fanlarga kognitiv yondashuv qobiliyatlarini ham takomillashtirishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda gi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. Kompetensiya nima degani? www.idum.uz
3. Sharipova G.M, Asamova D.F, Xo'djaeva Z.L. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2014.
4. Сайтбекова С.С. Использование исполнительского мастерства каракалпакского народа в воспитании школьников. Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Ташкент: УГУМЯ, 2011.
5. Дьяченко И.Ю. Теория и методика музыкального воспитания. Учебное пособие. – Тюмень: Изд-во Тюменского государственного университета, 2014.
6. Пазылов М.А. Оқышылардың музыкалық уқыпшылығын раўажландырыўдың когнитик өзгешеликлери. // Илим ҳам жәмийет, №2, 2023. 47-48-б.
7. Qodirov R.G'. Musiqa psixologiyasi. O'quv qullanma. – Toshkent: «Musiqa» nashriyoti, 2005.
8. Лейтес Н.С. Психология одаренности детей и подростков. – Москва: Издательский центр «Академия», 1996.
9. Рева В.П. Системы музыкального воспитания. Учебно-методические материалы. Часть-1. – Могилев: МГУ им А.А.Кулешова, 2017.
10. Otepbergenov J.S. Axborot ta'lim muhiti sharoitida talabalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi. dissertatsiya. – Toshkent: 2020.